



## PERSONAJ NUTQI RITMIKLIGI VA BADIY PSIXOLOGIZM

Go'zal Ramazonova

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7137439>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> September 2022

Accepted: 01<sup>st</sup> October 2022

Online: 03<sup>rd</sup> October 2022

### KEY WORDS

*Personaj nutqi, nutq ritmikligi, badiiy psixologizm, noverbal (kinetik vositalar), ritmik kolon, alliteratsiya, tovushdoshlik va b.*

Badiiy asar va uning ritmikligi – savqi tabiiy hodisa. Ya'ni ijodkorning yuragidan, qalbidan tug'iladi. Yaratilgan badiiy obrazlar kitobga aylanmasdan oldin, yozuvchining ongida mavjud bo'ladi va birga yashaydi. Ana shunday vaziyatda asar yozishga ehtiyoj tug'iladi – bu ilohiy hodisa. Ijodkor ish ustida ijod qilgan ekan, o'z erkini so'zlarga tutqazsa, so'z so'zni tanlab, bir-birini yetaklab boraveradi. Yozuvchining xayolidagi kuy so'zlarga aylanib, ilhom bilan quyulib kela boshlaydi. Albatta, ijod ahli so'zdan so'zni farqlay olishi, so'zning turli qatlamlarini ko'ra olishi, undagi ohangni his qila bilishi, o'rni kelganda, yangi mazmun bilan boyitishi ham zarur. Zero, adabiyotning qiroli – so'zdir, shunday ekan uning ovozi ham, joni ham so'zlar bilan yashaydi. Shunday ijodkorlar borki, ularning asarlarida so'zlar yosharadi, yangilanadi. Jumladan, Tog'ay Murod ijodida odmi so'zlar qaytadan dunyoga keladi. Uning asarlarida so'zlar yayraydi,

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada nasriy nutq ritmikligiga bevosita aloqador bo'lgan personaj nutqi ritmikligi va badiiy psixologizm masalasini yoritishda yozuvchi Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romani asosiy obyekt qilib olindi. Ritmik elementlar personaj nutqi va ayni paytdagi ruhiyatidan kelib chiqib tahlilga tortildi. Bunda, asosan, noverbal (kinetik) vositalarning ta'siriga e'tibor qaratildi. Sababi, personaj nutqi va uning ruhiy holatini noamoyon qiluvchi hatti-harakatlar asar ritmini belgilashda va aniqlik his qilish asosiy rol o'ynaydi.*

qo'shiq bo'lib yangraydi. Shu sababli, Tog'ay Murod adabiyot olamida o'zining individual uslubiga, individual ovozigaga ega yozuvchilar sirasiga kiradi. "Tog'ay Murod o'zbek adabiyotiga bamisoli yangi bir epkin olib kirgan va ko'p jihatdan xalq dostoni – termalari, maqol va naqlarini eslatuvchi, shaklan ixcham mazmunan teran, tagdor so'z-iboralarga boy bo'lgan ohandor tili va turkona uslubi adabiy jamoatchilikning diqqatini o'ziga rom etganligi endilikda isbot talab etmaydigan bir haqiqatdir". Yozuvchining ijodida so'zlarning raqsini, qahramonlar ovozini, asarning ruhini va ritmini his qilish o'quvchiga zavq-shavq bag'ishlaydi.

Ushbu faslda Personajlar nutqidagi ritmiklik va badiiy psixologizm munosabatini Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanidan keltirilgan quyidagi parchalar misolida ko'rib chiqamiz:

"Tagi ko'rmaganga / gilam bitmasin. // 11



Qodir qulni chevarasi, // 8  
Xolmat malayni nevarasi, // 9  
Eson xizmatkorni bolasi / 9  
Botir qo'shchi tumandan aynib keldi. // 11

Dastlabki ritmik kolondagi 11 bo'g'inli maqol bobning sarlavhasi yanglig' o'qiladi. Yozuvchi bo'lajak voqea-hodisalarga o'z munosabatini oldindan kesatq ohangida maqolga singdirib yuborgan. Mana shu satirik kulgiga yo'g'rilgan ohang birinchi bobning so'ngiga qadar muallif nutqiga hamohang ravishda davom etadi. Maqolning xushjaranligiga e'tibor qilsak, undagi tovushdoshlik ya'ni alliteratsiya ("g") hodisasini ko'rishimiz mumkin.

Navbatdagi ritmik kolonlarning sajlanishi, bo'g'inlar sonining, deyarli, farq qilmasligi xalq og'zaki ijodiga xos ohangni eslatadi, "Qodir qulni chevarasi, Xolmat malayni nevarasi, Eson xizmatkorni bolasi Botir qo'shchi" deya tanishtiruvni uzoq o'tmishdan so'z olib kelishi dostonlarga xos bo'lgan boshlanmani eslatadi. Shu o'rinda maqoldagi "tagi ko'rmagan" iborasini izohlab o'tib, uning ota-bobolari ham qul, malay, xizmatkor bo'lib o'tganiga, tag-zoti hech kim bo'lmaganiga ishora qiladi.

Keyingi satrlarda bosh qahramonimizning ayni vaqtdagi kayfiyati va psixologiyasi muallif nutqi asosida tasvirlangan noverbal vositalar (hatti-harakat, imo-ishora, jest va mimika) orqali izohlab boriladi:

"Qo'shchi tomndan tushdi. 6  
Hovuz bo'ylab yurdi. 6  
Hovuz supada tik turdi. 8  
Qo'llarini orqa etdi. 8  
Yo'q qorinni olg'a surdi. 8  
Yo'q qorinni olg'a suraman deya... 11  
ketiga chayqalib qoldi. 8  
Yo'q qorin oldinda qoldi... 8  
Keti ichkari kirib yo'qoldi. 10  
O'zi ketiga chayqalib qoldi!" 10

Mazkur matn 6,8,10 bo'g'inli qisqa ritmik pauzalardan tashkil topgan. Shuningdek, sajlar va takrorlarning qo'llanilishi asarning ritmini yana-da aniqroq belgilab beradi. Aynan shu ritmik ko'rsatkichlar qahramonning tasvirlanayotgan ruhiyati va psixologiyasiga mos keladi.

Asarning "Tagi ko'rmaganga, gilam bitmasin" iborasi bilan boshlanishida ham, aslida, tag-zoti pas Botir qo'shchining ayni vaqtdagi kayfiyati va psixologiyasini yoritishga xizmat qiladi. Ya'ni mansab tekkanidan dovdirab, o'zini yo'qotib qo'yan personaj hatti-harakatlari orqali qishloq ahlini taajjubga soladi. Badiiy tasvirning bunday ko'rinishi asarga yengil kulgi zamirida achchiq haqiqatni singdirib yuboradi. Yozuvchi ilk jumalalarda qahramonning oddiy qul va xizmatkor oilasidan chiqqaniga urg'u beradi hamda bunday oiladan chiqqan personajning sodda fikrlash dunyosi va ma'naviy olamini ikkilamchi aloqa vositasi bo'lmish noverbal harakatlari orqali tasvirlaydi. Inson tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday noverbal holat uning ichki dunyosi, karakter va psixologiyasidan hamda ayni vaqtdagi kayfiyatidan darak beradi.

Romanning ilk satrlaridagi qahramonimizning holati tasvirlangan mana shu kinetik tasvirlar asarning ritmini belgilab bergan. Ya'ni ushbu asarning ohangi odatiy nutq orqali emas, balki qahramonning karakteriga xos bo'lgan soddalig-u xurmacha qiliqlari aksini topgan noverbal vositalarda tabiiyroq, quloqqa yoqimliroq eshitiladi. Asarni o'qir ekansiz, tasvirlanayotgan voqealar ko'z oldingizda jonlanib borsa, undagi sodda va ravon ritmik ohang o'quvchiga jo'shqinlik va yengil kulgi bag'ishlaydi. Keyingi mulohazalarni quyidagi matn orqali davom ettiramiz:



“Bir dehqon qo’shchini izidan yetdi.  
Qo’shchini bilagidan tutamladi.

– Menga qara, Botir, – dedi. – Otangni ko’rdim, ahmadi forig’, enangni ko’rdim, tovonni yoriq, deydilar. Otang shul, enang shul, nima qilasan, osmonga chiqib? Tush pastga tush!”

Qo’shchi qaytib keldi, qo’shchi ko’kragiga kaft qo’ydi.

– Men! – deya ko’krak urdi. – Mana shu men, Botir firqaman, Botir firqa!”

Umuman olganda, asarda noverbal vositalarga murojaat qilish, personaj nutqi ritmikligining emotsional tonini belgilaydi va kitobxon asarni yaxshi, bor ohangi bilan his qilishga yordam beradi. shunday ekan, ularning noverbal harakatlariga tayanib, misol keltirilgan personaj nutqining ritmik intonatsiyasini belgilaymiz. Kinetik tasvirlardan kelib chiqib baho bersak, dehqonning qo’shchi bilan yaqindan, do’stona munosabat borligini tahmin qilishimiz mumkin. Chunki, harakatlar insonlar o’rtasidagi munosabatning qay darajada yaqin yoki uzoq, samimiy yoki nosamimiy ekanligini belgilaydi. Dehqonning qo’shchinining izidan kelib, bilagidan tutib, kimligini eslatib qo’yish maqsadida, achchiq so’zlar bilan tanbeh berishi va qahramonimizning dehqonga agressiv munosabat bildirmay, jimgina yo’lidan qaytib, o’zi bergan savolga javob berishi fikrimizni tasdiqlaydi. Shunday ekan, noverbal harakatlariga tayanib, nutqning ritmik emotsionalligiga baho beradigan bo’lsak, dehqonning nutqidan sof samimiy ohangni, do’stona jonkuyarlikni his qilish mumkin. noverbal harakatlarning tasviri keltirilgan jummalarni olib tashlaydigan bo’lsak, personaj nutqini yanglish ohang bilan mutolaa qilishimiz hech gap emas. Masalan, “Menga qara,

Botir, – dedi. – Otangni ko’rdim, ahmadi forig’, enangni ko’rdim, tovonni yoriq, deydilar. Otang shul, enang shul, nima qilasan, osmonga chiqib? Tush pastga tush!” deya personaj nutqining o’zi keltirilganda, ushbu nutqda kinoya, piching, mensimaslik ohangi ustuvorlik qilib, nutq ritmikligidagi emotsionallik yo’qolib, agressiv ohang yuzaga kelardi. Bu esa asarning tabiiy ritmik ohangiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Aynan ular o’rtasidagi noverbal harakatlar hishayajonni yuzaga keltirib, dehqonning nutqidagi ritmiklikka emotsional ohang bag’ishlagan.

Matn ritmikligiga xushohanglilik bag’ishlovchi bir qator unsurlar borki, ulardan biri, maqoldir.

“Otangni ko’rdim, ahmadi forig’, enangni ko’rdim, tovonni yoriq”

Maqolning o’zaro qofiyadoshlik tashkil qilishi va xushohangligi personaj nutqining ritmik quvvatini yana-da oshirgan. Navbatdagi ritmiklikni ta’minlovchi unsur so’roq olmoshi bo’lib (“nima qilasan, osmonga chiqib?”), matnda personaj ichki olamidagi his-kechinmalarni ifodalagan ritorik ohangni yuzaga keltirgan. Shuningdek, takroriy so’zlar, shevaga xos so’zlarning qo’llanilishi hamda nutqning qisqa ritmik kolonlar orqali ifodalanishi, emotsionallikni oshirib, ritmik jozibadorlikni ta’minlagan. So’zimizning isbotini romandan olingan navbatdagi parcha misolida ham ko’rishimiz mumkin:

“Botir firqa kasalxonaga qaray-qaray yurdi. Kasalxonaga qaray-qaray mashinaga o’tirdi.

“Qabriston, qabriston! – dedi Botir firqa. – bu kasalxona emas, tirik insonlar qabristoni. Asl qabristonga o’lik insonlarni ko’madi, bu qabristonga... tirik insonlarni ko’madi”.



Botir firqaning nutqidan olingan mazkur parchaning ritmik ohangi qahramonning ruhiy holatini tasvirlovchi kinetik vositalar evaziga bo'rtibroq seziladi. Botir firqadagi ongsiz ravishda yuz berayotgan noverbal harakatlar uning kechinmalarini, ruhiy holatini ochib beradi. bu holat o'z navbatida uning nutqiga ta'sir o'tkazib, ritmik ohangiga g'ayritabiiy emotioanallik yuklaydi. Botir firqa ko'zlari bilan ko'rgan voqealardan lol-u hayron bo'lib, hozirgina guvohi bo'lgan va unga kuchli ta'sir qilgan voqealarni tahlil qilar ekan, qo'rquv aralash nafrat bilan o'ziga o'zi past ohangda, balki ichida – "Qabriston, qabriston! – dedi Botir firqa. – bukasalxona emas, tirik insonlar qabristoni. Asl qabristonga o'lik insonlarni ko'madi, bu qabristonga... tirik insonlarni ko'madi", – degan xulosaga keladi. Biz "Botir firqa kasalxonaga qaray-qaray yurdi. Kasalxonaga qaray-qaray mashinaga o'tirdi", deya qahramonning ruhiyati tasvirlangan kinatik vositalarga tayanib, uning nutqidagi ritmik tonni past yoki ovozsiz deya baholashimiz mumkin. Zero, insonning ruhiyati, psixologiyasi, intim kechinmalari, avvalo nutq va o'ziga xos noverbal vositalar orqali yuzaga chiqadi. Shuningdek, noverballik har doim nutqdagi ohang bilan mushtarak namoyon bo'ladi. Misol keltiramiz:

"Botir firqa gap bilan andarmon bo'lib bilmadi. E'tibor etmadi.

Ana endi e'tibor berdi. Hovuz tagiga qaradi. Qunt bilan qaradi.

Hovuz tagida... ikkita qora narsa ustma-ust taxlab qo'yildi. Ikkita qora narsa uzala-uzala taxlab qo'yildi.

Botir firqa angrayib qoldi. Bir narsalarga angrayib qaradi, bir komandirga angrayib qaradi.

– Bular... odam... – deya duduqlandi Botir firqa. – bular... odammi?"

Botir firqa ko'z oldida yuz berayotgan kutilmagan voqealardan hayratda qolgandi. U go'yoki nima bo'layotganini tushunmas, o'ylariga javob izlayotganday goh hovuz ichidagi narsalarga, goh komandirga alanglab qarardi. Uning angrayib qarashining o'zida savol nazari ham bor edi, ammo bu holatni atrofdagilar sezmedi, chamasi, bu harakatlarga munosabat bildirilmadi. Nihoyat, Botir firqa bir xulosaga kelib, ammo o'zining xayoliga kelgan javobdan qo'rqib ketgandek tilga kirdi. Avvaliga, past va titroq ovozda qo'rquv aralash " – Bular... odam..." deya duduqlana oldi xolos. Qahramonimizning holatini his qilib turgan o'quvchi uning tilidan aytilgan bu so'zlarini o'qimaydi, balki bemalol uning nutqidagi ritmik ton va intonatsiya bilan birga eshita oladi. Shuningdek, ushbu jumlada Botir firqaning bo'g'zidan titrab chiqqan bu ikki so'zning ritmini yana-da yaxshiroq his qilishimiz uchun uch nuqtaga e'tibor qaratamiz. Aynan mana shu uch nuqta orqali uning nutqidagi dovdirash, esankirash kabi kuchli hayajonni ifodalaydigan ritmni yana-da tiniqlashtirgan. Botir firqa o'zining ovozidan kuch olgandek savolini anchayin dadilroq ohangda qayta atkrorladi: " – bular... odammi?" Ammo uning so'zlarida hamon esankirash, dovdirash ohangi bor edi. Shu bilan birga, uning nutqidagi ritmik intonatsiadan savol ohangini, o'zi berayotgan savolga ham javob, ham izoh talab qilayotganini ilg'ash qiyin emas. Insonning atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqealarga munosabati, avvalo, ichki dunyosida g'alayon ko'tarib, muayyan ritmik ohangga evrilgan holda tilga ko'chadi. Bu ritmiklik og'zaki nutqda yaqqol sezilib turadi, ammo yozma nutqda ko'p hollarda tinish belgilari asosida yuzaga chiqariladi. Bularga qo'shimcha



ravishda ijodkor noverbal vositalarni ham o'z o'rnida mahorat bilan qo'llasa, asarning, xususan, muallif va personajlarning nutqidagi ritmik ton va intonatsiya yaqqol sezilib turadi. Misol keltiramiz:

“Shunda, Botir firqa bir ajabtovur ovoz eshitdi. Firqa alang-jalang bo'ldi. Ovoz ko'kdan kelyaptimi yo yerdan chiqyaptimi, bilolmadi. Bir ko'kka qaradi, bir tevvarakka qaradi, bir NKVDchilarga qaradi.

Komandir iyagi bilan hovuzga imo etdi.

– O'radan kelyapti, o'radan, – dedi.

Botir firqa hovuzga tikildi. Chin, ovoz hovuzdan kelmish bo'ldi. Nazarida... nazarida, jasadlar qimir-qimir etmish bo'ldi. Botir firqa yoqa tutamlab-yoqa tutamlab, angraydi. Botir firqa yoqa tuflab-yoqa tuflab, angraydi.

– Iya! – deya komandirga qaradi. – Iya-iya...”

Mazkur matnda mavjud holatga nisbatan ikki personajning ikki xil, bir-biriga zid qarashi aks etgan. Voqelik barchaga bir xilda ta'sir qilmaydi. Chunki, insonning harakter va psixologiyasi individuallikka asoslangan hodisadir. Keltirilgan ikki personajning voqelikka nisbatan bir-biridan farqli hatti-harakati va nutqi fikrimizga misol bo'la oladi. O'ziga xos soddalik bilan, ovozni qayerdan kelayotganini anglamagan Botir firqaga atrofga alanglaydi. Komandir esa unga javoban yuz-ko'zida hech qanday hamdardlik, istihola, chorasizlik yoki

achinish alomatlari zohir etmay iyagi bilan hovuzga imo qiladi va sovuqqon ohangda ovozning o'radan kelayotganini aytadi. Bosh qahramon javobdan o'takasi yorilguday bo'lib, yoqasini ushlab, qayta-qayta yoqasiga tuflashidan, uning ruhiy holatini anglash mumkin. u angraygan ko'yi tili kalimaga kelmay“ – Iya!” deya takrorlashdan boshqa so'z tiliga ko'chmaydi. Bu kutilmagan holatdan u butunlay o'zini yo'qotib dovdirab, so'zini yo'qotib talmovsirab qoladi. Ammo, birgina shu undov so'zda personaj nutqining emotsionallikka boy va tabiiy ritmi to'liq aks etadi. Chunonchi, qahramonning holatidagi noverbal vositalarni e'tiborga oladigan bo'lsak, bu so'zdagi kuchli hayajonni, qo'rquvni uning “iya-iya” deya angrayib takrorlashlaridagi ohangdan uning kechinmalarini, ruhiyatini his qilish mumkin.

Muallif nutqidagi noverbal harakatlarning tabiiy, hayotiy chiqishida takrorlar, undov so'zlar, kirish so'zlar kabi ritmik tonni belgilab beruvchi badiiy til va badiiy tasvir vositalarining o'rni beqiyosdir. Ayni shu takrorlar harakatning ongsiz ravishda takror-takror sodir bo'layotganini ko'rsatib beradi. Tog'ay Murod asarlarida kinetik vositalardan mohirlik bilan foydalana oladi, bu esa o'quvchining asar qahramonlarining nutqiga va kayfiyatiga xos ritmni yaxshiroq his qilishga, ular bilan hamnafas bo'lishga zamin yaratadi.

### References:

1. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ҳамда шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б.78.
2. Мирзиёев Ш.Ш. Ўзбекистон иждоқор зиёлилари билан учрашувдаги маърузаси. “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир”/ Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.





3. Murod Tog'ay. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. – T.: ZIYO NASHR. 2019. B – 206.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari // Badiiy nutqning ritmikligi. – T.: Navoiy universiteti, 2018. B – 475 б
5. Адабий турлар ва жанрлар. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1990. – 174 б.
6. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 149 б.
7. Қуронон Д. Адабиётшунослика кириш. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси илмий нашриёти, 2004. – 209 б.
8. Қуронон Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Toshkent. Akademnashr, 2013. – 405б
9. Қуронон Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафакқури тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2008. – 275 б.
10. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари.–Тошкент.: 2004. –127 б.
11. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Т.: FAN, 1978. – 150 б
12. <http://www.sharqyulduzi.uz>
13. <http://www.quronov.narod.ru>
14. <http://www.literature.uz>
15. <http://www.ziyonet.uz>
16. <http://www.ziyouz.com>